


2020- yilning yanvar-avgust oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari

1848,1
mlrd. so'm


100,6 %

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida Xorazm viloyatida jami **1848,1** mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **100,6 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlari tarkibi bo'yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **159,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **129,8 %** ga ko'p bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2019- yilning mos davridagi ko'rsatkich darajasidan **2,0 %** punktga ko'payib, **8,6 %** ni tashkil etdi.

**2020- yilning yanvar-avgust oylarida yirik qurilish tashkilotlari
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi**




Maʼlumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlaringin jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Urganch shahar (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **44,7 %** yoki 2019- yilning yanvar-avgust oyiga nisbatan **192,4 %**), Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **32,1 %** yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **392,0 %**), va Bog'ot tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **4,8 %**, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **123,7 %**) ga to'g'ri keldi.




Qurilish ishlarining umumi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2020- yilning yanvar-avgust oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **61,5 %** i to'g'ri kelib, 2019- yilning yanvar-avgust oylari ko'rsatkichiga nisbatan **2,3 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2019- yilning mos davriga nisbatan **95,6 %** ni tashkil etgan holda **1136,6 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **29,9 %** ni tashkil etdi yoki **552,4 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan o'sish **104,8 %** ni tashkil etdi

**Qurilish ishlarining umumiy hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **112,9** mlrd. so'm yoki nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **1735,2** mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **6,1 %** va **93,9 %** ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2020- yilning yanvar-avgust oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi % da	mlrd. so'm	ulushi % da
Xorazm viloyati	1848,1	112,9	6,1	1735,2	93,9
Urganch sh.	490,5	38,7	34,3	451,8	26,1
Xiva sh.	129,0	6,2	5,5	122,8	7,1
tumanlar:					
Bog'ot	109,9	10,5	9,3	99,4	5,7
Gurlan	115,1	12,0	10,6	103,1	5,9
Qo'shko'pir	99,3	6,9	6,1	92,4	5,3
Urganch	145,4	3,8	3,4	141,6	8,2
Hazorasp	61,2	6,8	6,0	54,4	3,1
Tuproqqa'l'a	43,4	0,0	0,0	43,4	2,5
Xonqa	147,6	4,1	3,6	143,5	8,3
Xiva	153,8	0,0	0,0	153,8	8,9
Shovot	111,9	12,4	11,0	99,5	5,7
Yangiariq	113,9	4,9	4,4	109	6,3
Yangibozor	127,1	6,6	5,8	120,5	6,9

**Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2020- yil yanvar-avgust**

Bajarilgan qurilish ishlaring katt
qurishga tegishli. Jami qurilish
mlrd. so'm qurilish ishlari ay
chiqarish quvvatlari, turar-joy
yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yich
hisobidan **133,4** mlrd. so'mlik is
yirik qurilish korxonalarining yan
ulushi **10,2 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yich
yangi qurilish hisobidan **666,5** mlrd.
so'mlik ishlari ulusidagi ulushi 51
tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida
norasmiy sektor hissasi **504,8**
mlrd. so'm yoki ularning jamiga
nisbatan ulushi **38,7 %** ni tashkil
etdi.






**2020- yilning yanvar-avgust oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

	Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m)	O‘sish sur‘ati, % da	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd. so‘m)
Xorazm viloyati	1848,1	100,6	1304,7
Urganch sh.	490,5	98,5	360,6
Xiva sh.	129,0	94,1	86,3
tumanlar:			
Bog‘ot	109,9	109,6	70,2
Gurlan	115,1	100,6	80,3
Qo‘siko‘pir	99,3	100,8	64,8
Urganch	145,4	89,5	103,3
Hazorasp	61,2	92,2	39,0
Tuproqqa'l'a	43,4	97,3	32,0
Xonqa	147,6	146,9	122,9
Xiva	153,8	100,3	85,4
Shovot	111,9	100,7	86,1
Yangiariq	113,9	91,7	84,1
Yangibozor	127,1	100,2	89,7

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi




Binolar va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **1,3 %** ni tashkil etib, 2019- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,7 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2019- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **0,8 %** punktga kamayib, **55,7 %** ni tashkil etdi.


Norasmiy sektoring ulushi esa 2019- yilning yanvar-avgust oylaridagi ko'rsatkichga nisbatan **1,4 %** punktga ko`payib, **43,0 %** ni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **19,6 %** ni tashkil etdi va 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **4,3 %** punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **80,4 %** (**4,3 %** punktga kamayish) ni tashkil etdi.






Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **13,9 %** punktga ko`paydi va **39,7 %** ni tashkil etdi. Qolgan **60,3 %** i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **13,9 %** punktga kamaydi.

ulushi, % da






Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2020- yil yanvar-avgust oylarida

mldr. so'm

	Qurilish ishlari hajmi	shu jumladan:		
		Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari
Xorazm viloyati	1848,1	1285,2	406,9	156,0
Urganch sh.	490,5	245,3	207,9	37,3
Xiva sh.	129,0	90,0	35,8	3,2
tumanlar:				
Bog'ot	109,9	76,7	25,2	8,0
Gurlan	115,1	92,4	15,4	7,3
Qo'shko'pir	99,3	77,3	13,5	8,5
Urganch	145,4	110,6	25,5	9,3
Hazorasp	61,2	49,4	11,0	0,8
Tuproqqa'l'a	43,4	34,6	8,0	0,8
Xonqa	147,6	82,4	8,6	56,6
Xiva	153,8	128,5	20,9	4,4
Shovot	111,9	84,6	13,6	13,7
Yangiariq	113,9	104,8	7,7	1,4
Yangibozor	127,1	108,6	13,8	4,7



Iqtisodiy faoliyat turlari hamda hududlar kesimida qurilish ishlari




**Bino va inshootlar qurilishi,
jamiga nisbati, % da**




Joriy yilning yanvar-avgust oylarida bino va inshootlar qurilishi ishlaringin umumiylajmi hajmida eng yuqori ulush Yangiariq tumanida qayd etildi (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmi hajmining 92,0 % i yoki **104,8** mlrd. so'm), shuningdek, Yangibozor tumanı (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmi hajmining 85,4 % i yoki **108,6** mlrd. so'm) va Xiva tumanlari ham (ushbu hududda qurilish ishlari umumiylajmi hajmining 83,5 % i yoki **128,5** mlrd so'm) yuqori ulushga ega.

Joriy yilning yanvar-avgust oylarida fuqarolik qurilish obyektlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Urganch shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 42,4 % i yoki **207,9** mlrd. so'm), Xiva shahrida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 27,8 % i yoki **35,8** mlrd. so'm), Bog`ot tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmidan 22,9 % yoki **25,2** mlrd. so'm) da qayd etildi.

Fuqarolik obyektlari qurilishi,
jamiga nisbati, % da




Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari,
jamiga nisbati, % da



Joriy yilning yanvar-avgust oylarida ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari qurilishining umumiy hajmida eng yuqori ulush Xonqa tumanida (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 38,3 % i yoki **56,6** mlrd. so'm), Shovot tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 12,2 % i yoki **13,7** mlrd. so'm) va Qo'shko'pir tumani (ushbu hududda qurilish ishlari umumiy hajmining 8,6 % i yoki **8,5** mlrd. so'm) da qayd etildi.

2020- yilning yanvar-avgust oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari

mIrd. so'm





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati
Statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (62)224-65-22